

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA QO'LLANGAN TIL BIRLIKALARINING LINGVOPOETIK IMKONIYATLARI

Umida RASHIDOVA

Sh.Rashidov nomidagi SamDU doktoranti (DSc)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806451>

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodida frazeologik birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari va badiiyati tahlil qilinadi. Navoiy asarlarida qo'llangan frazeologik birliklar tilning boy va ifodalni vositalari sifatida o'zbekona tafakkur va milliy dunyoqarashni ifodalashdagi o'rni muhokama qilinadi. Shuningdek, frazeologizmlarning poetik funksiyalari o'rganilib, ularda ulug' shoirning badiiy maqsadlarini, ruhiyatini, hissiyotlarini qanday tarzda aks ettirishi ko'rsatiladi. Navoiy she'riyatida keltirilgan frazeologizmlar o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning lingvopoetik (tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan) imkoniyatlari tahlil qilinishi, shuningdek, milliy tafakkurni qanday tarzda aks ettirishdagi rolini ochib beradi.

Kalit so'zlar: frazema, lingvopoetika, somatik, frazeologik birikma.

Аннотация: В статье анализируется лингвопоэтический потенциал и художественность фразеологических единиц в творчестве Алишера Навои. Рассматривается роль фразеологических единиц, используемых в произведениях Навои, как богатых и выразительных средств языка в выражении узбекской мысли и национального мировоззрения. Изучаются также поэтические функции фразеологизмов, показывающие, как они отражают художественные цели, психику и чувства великого поэта. Представленные в поэзии Навои фразеологизмы тесно связаны с исторической, культурной и общественной жизнью узбекского народа, и анализ их лингвопоэтического (с точки зрения языкоznания и литературоведения) потенциала, а также их роли в отражении национальное мышление, раскрывает.

Ключевые слова: фразема, лингвопоэтика, соматика, фразеологическое сочетание.

Annotation: The article analyzes the linguopoetic potential and artistry of phraseological units in the work of Alisher Navoi. The role of phraseological units used in Navoi's works as rich and expressive means of language in expressing Uzbek thought and national worldview is discussed. The poetic functions of phraseologisms are also studied, and it is shown how they reflect the artistic goals, psyche, and feelings of the great poet. The phraseologisms presented in Navoi's poetry are closely related to the historical, cultural, and social life of the Uzbek people, and their linguopoetic (from the point of view of linguistics and literary studies) potential is analyzed, as well as their role in reflecting national thought is revealed.

Keywords: phraseme, linguopoetics, somatic, phraseological combination.

Jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham iboralar yoki frazeologik birliklar ko'plab tadqiqotlar uchun o'rganish obyekti bo'lgan. Tilshunoslikda iboralarning shakllanishi, grammatik va semantik xususiyatlarini o'rganuvchi fanga frazeologiya deyiladi. Ibora yoki frazeologik birlik deyilganda esa "tuzilishiga ko'ra, so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

birlik”ka aytildi [10.124-125.]. Frazeologik fondda xalq tarixi, madaniyati va maishiy turmushining o‘ziga xosligi jilvalanadi. Aslida, frazeologik birikmalar sof milliy xarakterga ega, ammo xalqlararo va tillararo hamkorlik baynalmilal ifoda madaniyatini shakllantirishi mumkin. Masalan, rus tilida ingliz, fransuz, nemis, italyan millatlari mentalitetiga xos iboralar uchrasa, o‘zbek frazeologik fondida eroniy va arab tiynatiga daxldor iboralar uchrashi tabiiy holdir. Tilshunoslar frazemalar va turg‘un bog‘lanmalar (paremalar) munosabati masalasida turlicha fikrlar bildirishadi [3. 83–84.; 5.381.].

Frazeologik birliklar boshqa til birliklari singari nutqni ta’sirli va ixcham qiladi, balki ma’lum bir millatning madaniyati, yashash tarzi hamda milliyligini ham ochib berishga xizmat qiladi. Ma’lumki, A.Navoiy she’riyatida qo‘llangan frazeologik birikmalarni lingvopoetik aspektida o‘rganish eski o‘zbek tilining frazeologik boyligini belgilashda, uni hozirgi o‘zbek adabiy tili frazeologiyasi bilan taqqoslab tadqiq etishda boy manba bo‘ladi. Chunki “Lingvopoetika nafaqat tilning ijtimoiy vazifa hamda maqsadlariga, shuningdek, uning ko‘plab nazariy-metodologik masalalariga tamomila yangicha yondashish imkonini beradi. Lingvopoetika til-nutq dixotomiyasiga monand ish ko‘rib, tilning umumiyligi muammolarini qamrab olish bilan birga va shu tarzda, filologiya birligini ta’minlashga keng imkoniyatlar yaratadi” [7.22.].

Tilshunoslikda ayonki, frazemalar shunchaki “qotib qolgan” so‘z va so‘zlar birikmasidan iborat bo‘lib qolmay, u har bir millatning o‘zligini, turmush-tarzi, orzu va his-tuyg‘ularini mujassamlashtiradi. Ular ming yillik tarixga ega ekan, demak, ularni o‘rganish ham tezda amalga oshadigan jarayonlar sirasiga kirmaydi. Istiqlol yillaridan ancha oldin boshlangan bu jarayon hali ham davom etmoqda, ammo nihoyasiga yetgan emas. Bu jahada qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Shunday tilshunoslardan biri B.Yo‘ldoshev o‘zining 50 yillik tadqiqoti davomida bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdi.

Badiiy matn lingvopoetikasida turg‘un bog‘lanmalar – barqaror birikmalar (maqol, matal, ibora va aforizmlar) tahlili o‘ziga xos muhim jihatlardan biri sanaladi. Jumladan, frazeologik birikmalar ifodasi, uning ostiga yashiringan ma’no lingvopoetik tahlil jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Ya’ni, “hayotda xilma-xil voqeа-hodisalarning tagiga yetish, turli-tuman harakat-holatlarga baho berish, katta-kichik tajribalarni umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obratzli ifodalari bo‘lmish frazeologik iboralar badiiy matnda deyarli hamisha poetik aktual bo‘ladi” [4.196.]. Frazeologizmlar tilning obratzli vositalari sirasiga kirib, har qanday ibora ostida aniq bir hodisa-tushuncha tasavvuri, muayyan bir predmet yotadi. Bu obraz iboraga alohida jilo va ravshanlik baxsh etadi [8.15..]. Tilshunoslikka oid

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

ilmiy manbalarda ishlatiluvchi “frazema”, “frazeologik birlik”, “ibora”, ba’zan Yevropa lingvistikasidagi qo’llanuvchi “idioma” terminlari mohiyatan bir tushuncha doirasidagi sinonim terminlar hisoblanadi (aslida, ular orasida juz’iy farqlanishlar bo’lsa ham). N.Mahmudovning “Tilning chinakam sehri joduli lug‘aviy birliklari olamida yana bir mutlaqo uzviy qatlam mavjudki, uni mutaxassislar “iboralar” yoki “frazeologizmlar”, “frazeologik birliklar” termini bilan ataydilar” [6.3.].

Frazeologik birliklarni har tomonlana o’rganib, shoir va yozuvchilar ijodi misolida tadqiq etgan, qimmatli ma’lumotlar to‘plagan, muammo va vazifalarni aniq ochib bergen Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, A.E.Mamatov, I.Qo‘chqortoyev, B.Yo‘ldashev, M. Yo‘ldoshev kabi tilshunoslar, shuningdek, frazemalarning lingvopoetik imkoniyatlari esa N. Mahmudov, D.Shodiyeva, G.Jumanazarova, Sh.Toshxo‘jayeva, M.Ahmedova, O.Ochilova, J.Matnazarov kabi tadqiqotchilar ham atroficha yoritgan.

Navoiy frazemalardan lirik qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda, psixologik, ijtimoiy-maishiy, madaniy vogelikni emotsional-ekspressiv ochib berishda juda o‘rinli qo’llanilgan. Frazeologik birlik (FB)lar fikrning aniq va ravshan ifodasini ta’minlashda boshqa til birliklariga nisbatan o‘ziga xos jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy ijodining lingvopoetik tahlilida ham frazeologik birliklar alohida o‘rin tutadi.

*Hushi kirgach, yana nazar etti,
Ko ‘rgach o‘q holdin yana ketti.*

[*Hushiga kelgach, yana nazar qildi,
Ko ‘rdi-yu, yana holdan ketdi.* [9.184.]

Somatik iboralar – inson tana a’zolari qatnashgan iboralardir. Bunday iboralar Navoiy ijodida yetarlicha uchraydi. Masalan, “ko‘z” komponentli bir frazemani tahlil qilamiz. *Bahr aro yittilar ravon ko‘zdin* misrasida ko‘z leksemasidan boshqa barcha so‘zlar o‘quvchi uchun notanish bo‘lishi mumkin. Barcha so‘zlarni o‘z tartibiga qo‘yib keltirib olsak, ko‘zdin yittilar iborasi hosil bo‘ladi. Bu yerda yittilar – ko‘rinmay ketdilar ma’nosiga ega. Bu ibora so‘zlashuv va boshqa uslublarda keng qo’llaniladigan ko‘zdan yo‘qolmoq iborasiga mos keladi. O‘TFLda ko‘zdan yo‘qolmoq iborasiga biror tomonga harakatlanib ko‘rinmay ketmoq tarzida ifodalangan. [4.272.].

*Vahm etib ul guruh bu so ‘zdin,
Bahr aro yittilar ravon ko‘zdin*

[*(Kemadagi) guruh bu so ‘zdan vahimaga tushib,*

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Dengiz aro tezda ko'zga ko'rinnmay ketdilar [9. 185.]

Shu bilan birga “ko'ngil” komponentli iboralar ham hozirda mavjud bo‘lgan shakllaridan deyarli farq qilmaydi, hatto ko‘pchiligi bir xil shaklda. Jumladan, ko‘ngli o‘rtamoq bunga dalil bo‘la oladi. O‘TFLda ko‘nglini o‘rtamoq – nohaq ravishda iztirob chektirmoq [4. 296.].

Mehr ko'ziga shomdek ayyom,

Mehrdek ko'ngli o'rtanib to shom.

[Mehrning ko'ziga kunduzlar shomdek ko'rinar,

Quyosh kabi ko'ngli shomgacha o'rtanardi [9.185.]

Navoiy asarlarida ko‘ngil so‘ziga sinonim sifatida tab’ so‘zini ham qo‘llash uchraydi. Ammo bu leksema sof turkiycha bo‘lmay, arab tilidan o‘zlashgan. Tab’ leksemasi hozirda ham qo‘llaniladi, biroq oldingi davrdagidek ko‘p ma’noni ifodalamaydi. Quyida tab’ rog‘ib emas frazeologik birligi o‘quvchilar uchun mutlaqo notanish bo‘lishi tabiiy. Rog‘ib emas – munosib emas degani. Ko‘ngli tilamoq va tab’ rog‘ib emas frazemalari izohlari aynan bir-birini taqazo etadi.

Qatlinga garchi tab’ rog‘ib emas,

Lek qo‘ymoq dag‘i munosib emas.

[Ko‘ngil qatlingni tilamasa-da,

Lekin qo‘yib yuborish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. [9.196.]

Xulosa shuki, Alisher Navoiy ijodida frazeologizmlar (yoki frazeologik birliklar) tilning boy va ifodali vositalaridan biri sifatida keng qo‘llanilgan. Ularning yordami bilan Navoiy asarlarida hissiyotlar, g‘oyalar va tasvirlar aniq, jozibali va ta’sirchan tarzda ifodalangan. Navoiy asarlaridagi frazeologizmlar ko‘pincha qadimgi turkiy va forsiy adabiyotlardan olingen bo‘lib, ular musiqiy ohang, takrorlash, metafora va majoziy ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, Navoiy frazeologizmlardan xalqning turmush tarzini, qadriyatlarini va tilini ifodalashda ham foydalangan. Bu frazeologizmlar orqali o‘quvchida Navoiy zamonasi va xalqining psixologiyasi, tafakkuri va dunyoqarashi haqida chuqur tasavvur hosil bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература/ References):

1. Rasulov Ravshanxo‘ja. Umumiyl tilshunoslik. Toshkent, 2010, 257-bet.
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022, 469-bet.
3. Виноградов В.В. Очерки по истории русского литературного языка XVII – XIX веков. М., 1982, с. 83-84.
4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2019, 196-bet.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

5. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. М., «Высшая школа», Дубна, “Феникс”, 1996, с. 381.
6. Mahmudov N. Iboralar va ularning lug‘aviy tavsifiga chizgilar. “O‘zbek tili va adabiyoti”, Т., 2022, 3-con, 3-bet.
7. Mirzayev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o‘rni. Tilshunoslikning dolzARB masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami). Toshkent, “Universitet”, 2002, 22-bet.
8. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. Toshkent, “Fan”, 1971, 15-bet.
9. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot 7-sinf. Toshkent, 2017, 369-bet.